



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan

Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 16-aprel, seshanba,

45 (23.922)-son

**KUN  
HIKMATI**  
Ziyoratgohni  
obod etish  
ko'ngilga taskin  
beradi



## Madaniyat va san'at xodimlari taqdirlandi

Viloyat musiqali drama teatrda 15 aprel - Madaniyat va san'at xodimlari kuni munosabati bilan tadbir tashkil etildi.

Tadbirda viloyat hokimining o'rinnbosari R.Qobilov ishtiroy etib, soha xodimlarini kasb bayrami bilan tabriklaadi, faol ijodkorlarga viloyat hokimligining tashakkurnomasi va esdalik sovg'alari topshirildi.

- 40 yildan buyon teatr va san'at sohasida ishlayman, - deydi Samarqand shahar madaniyat bo'limi boshlig'i Rita Mahmudova. - Keyingi yillar-

da sohaga e'tibor oshdi. Jumladan, madaniyat va san'at markazlarining moddiy-teknik bazasi yaxshilandi, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 20 ga yaqin loyiha amalga oshirildi. Madaniyat va san'at xodimlari kuni belgilandi. Bugun kasb bayramida ko'p yillik mehnatlarim e'tirof etilib, Madaniyat vazirligi tomonidan "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishonini bilan taqdirlanganidan xursandman.

Tadbir davomida «Lazgi» ashula va rags ansambl jamoasining konsert dasturi namoyish etildi.

F.RO'ZIBOYEV.

## Finlandiyalik talabalar Samarqandda

Finlandianing o'n ikkita oliy ta'lim muassasasidan 20 dan ziyod professor-o'qituvchi va talabalar O'zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti faoliyati bilan tanishish, hamkorlikni kengaytirish maqsida Samarqandda keldi.

Tashrif doirasida O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti rektori Shahzoda Negmatova mehmonlar bilan uchrashuv o'tkazdi. Hamkorlarda tashkil etilishi kutilayotgan «Fin tilini o'qitish markazi» - da finlandiyalik profesor-o'qituvchilar, ayniqsa, talabalarning ishtiroyi muhim ekani ta'kidlandi.

Uchrashuvda Finlandianing ta'limdagi yutuglari bosqichma-bosqich institutda ham tatbiq etilayotgani



Yurtimizda o'tkazilayotgan «Yashil makon» umummilliy loyhasi doirasi da «O'zbekiston-Finlandiya bog'i»ning ilk nihollari finlandiyalik yoshlar bilan birgalikda eklidi.

- Samarcand shahri menda ajoyib taassurot qoldirdi, - dedi Helsinki universiteti professori, delegatsiya rahbari Sirke Makinen. - Ushbu ko'hna maskanda mamlakatimiz bilan birgalikda ochilgan pedagogika instituti faoliyatini o'rgandik.

Institut rahbari bilan ko'p masalalar yuzasidan fikr almashdik. O'yaymanki, ta'lindagi bu hamkorligimiz tez orada o'z samarasini beradi.

Hamza BURXONOV.

Keyingi kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda kuchli yog'ingarchilik tufayli ayrim hududlarga sel kelib, aholi xonadonlari, ko'cha va yo'llarni suv bosganligi aks etgan surat va videolavhalar paydo bo'imoqda. Bu holat Urgut, Nurobod, Qo'shrabot, Ishitxon, Narpay tumanlaridagi tog'li va dasht hududlarida yuzaga kelgani aytimoqda.

- Joriy yilning 12-15-aprel kunlari viloyatimizning ayrim hududlarda kuchli yog'ishni natijasida ko'p miqdordagi yog'ish suvlari ariq va lotoklarning quvulariga sig'masdan to'planib qolish holatlari kuzatildi, - deydi viloyat favqulodda vazi-

## OGOH BO'LING, kuchli yomg'irlar hali davom etadi

yatlar boshqarmasi boshlig'i Ilhom Ismoilov. -Suv toshqinlарidan yordam so'rab 10 nafar fuqarordan bizga murojaat kelib tushdi. Jumladan, Nurobod tumanidagi Sarikul, Do'stlik va Po'latchi mahallalarida sel oqimlari suv toshqinlari yuzaga keldi. Shuningdek, Kattaqq'or'g'on shahridagi ayrim ko'chalarni, Samarqand shahridagi Chuchuro'l, Rudakiy, Mirzo Bedil ko'chalarni suv bosib, mashinalar va piyodalar harakatiga xalaqit bergan. Biroq, hozirda vaziyat to'liq nazoratga olinib, FVB, IIB,

hokimlik va boshqa hamkor tashkilotlar hodisa oqibatlari bartaraf etmoqda.

Ayni damda Samarqand shahridagi 8 ta yong'in-qutqaruv bo'linmasining avariya brigadalarida motopompalar, suv o'tkazmaydigan kiyimlar hamda boshqa zurur asbob-uskunalar shay holatda bo'lib, ular yordamida sel oqibatlari bartaraf etilmoga. Toshqinlar natijasida fuqarolarining jabraniши va uy-joylari zarar ko'rganligi to'g'risida ma'lumotlar qayd etilmagan. Viloyatning sel va ko'chki xavfi mavjud

hududlarida, xususan, Urgut tumanida 8 ta, Samarqand tumanida 2 ta, Nurobod tumanida 4 ta va Qo'shrabot tumanida 3 ta, jami 17 ta nazorat-kuzatuv postlari tashkil etilib, vaziyat bo'yicha muntazam aloqa yo'iga qo'yilgan.

Viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi va uning tarkibi tuzilmalari kuchaytirilgan tartibda, hodisa oqibatlari tezda bartaraf etishga shay holatda xizmat olib bormoqda.

O'zgidrometeorologiya markazining xabariga ko'ra, 16-17-aprel kunlari mamlakatimiz hududida kuchli yomg'ir yog'ishi kutilmoqda. Jumladan, viloyatimizning Kattaqq'or'g'on, Samarqand, Payariq, Urgut, Nurobod, Bulung'ur, Qo'shrabot, Jomboy, Ishitxon tumanlarida sel-suv toshqini xavfi yuzaga kelishi mumkin.

Dilmurod TO'XTAYEV.



## Samarqandni ziyorat qilish – sharaf

O'mon Sultonligi tashqi ishlar vaziri Badr bin Hamad al-Busaydiy boshchiligidagi delegatsiya 14-aprel kuni Samarqandda bo'ldi.

Mehmonlarni Samarqand xalqaro aeroportida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

O'mon Sultonligi tashqi ishlar vaziri dastlab buyuk muhaddis Imom Buxoriy majmuasini ziyorat qildi. Ayni paytda bu yerda amalga oshirilayotgan ulkan bundaykorlik ishlariiga yuksak baho berdi.

Mehmonlar Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati bilan tanishdi. Markazda buyuk muhaddis va allomalar merosini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari to'g'risida ma'lumot berildi.

- Samarqandga ilk tashrifimiz taassurotlarga boy bo'ldi, - dedi O'mon Sultonligi tashqi ishlar vaziri Badr bin Hamad al-Busaydiy. - Ayniqsa, ulug' muhaddis Imom

Buxoriy qabrini ziyorat qilish biz uchun ulkan sharaf. Ushbu majmua yaqin orada Islam olamining eng qutlug' ziyorat-gohlaridan biriga aylanishi shubhasiz. Delegatsiya a'zolari Registon may-

donidagi ulug'vor madrasalar, bu yerda namoyish etilgan milliy hunarmandlik mahsulotlari va zattotlik san'ati namunalarini katta qiziqish bilan tomosha qildi. Baxtiyor MUSTANOV.

## Oqdaryoda tomorqachilikda nima o'zgarish bo'ladi,

tuman tibbiyotida – chi?

Oqdaryo tumanida aholi tomorqalaridan samarali foydalanish maqsadida ijobji ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tumandagi 35 ta mahallaning har biridan 7 tadan, jami 245 ta xonodon ajratib olingan bo'lib, ularda parrandachilik, is-siqxona, sabzavotchilik, hunarmandchilik hamda qo'y va qoramol boqish yo'iga qo'yilgan. Shuningdek, har bir mahallaga lider tadbirkorlar biriktirilgan bo'lib, tomorqalarda kartoshka, loviya, pomidor, bulg'or qalamplari, bodring kabi sabzavot ekinlari parvarishlanmoqda.

Tuman hokimi Sh.Qudratov journalistlarga tomorqalarda ekin ekish, daraxt ko'chatlari o'tqazish va obodonlashtirish borasidagi ishlar haqida ma'lumot berdi.

- Mahallalarda tashkil etilgan yettilik tavsiysi asosida ijtimyo daftarlarda ro'yxatda turgan 910 nafar yosh tanlab olindi, - deydi tuman hokimi Sherzod Qudratov. - Ularga 610 hektar yer maydoni ajratildi. Hozirgacha 417 nafar yoshga 256 hektar yer berildi. Shuningdek, mazkur yer maydonlarida 7 ta nasos o'rnatilib, suv bilan to'liq ta'minlanadi.

Undan tashqari, "Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyili asosida 3 ta eksportyor belgilangan. Jumladan, Primkent mahallasi xonardonlarda 123 hektar yer maydonida kartoshka, loviya va

pomidor ekish rejalashtrilgan. Mahallaga biriktirilgan "Usman afroil" MChJ aholini urug' va ko'chat bilan ta'minlaydi. Shuningdek, mazkur korxonaga 12 ta mahalladan 280 nafar ishshiz yoshlar biriktirilgan bo'lib, ularga 757,6 hektar yer ajratib berilgan.

Tumandagi Zarafshon, Yangiobod va Oytam'ali mahallalariga "Yangi-ravot shabnami" MChJ biriktirilgan bo'lib, mahalladagi 1715 ta xonodon tomorqasida 4 million 480 ming dona pomidor ko'chati eklidi. Mahsulot yetilguning qadar ekin parvarishi korxona agronomi nazoratida bo'ladi. Tomorqalarda yetishtirilgan pomidor bozor narxida sotib olinadi.

Shuningdek, jurnalлистар tuman tibbiyot birlashmasida bo'lib, shoshilinch tibbiy yordam, kattalar va

bolalar bo'limlaridagi qurilish-ta'mirlash ishlari bilan tanishdilar.

- O'tgan yili bo'limim yangi binoga ko'chib o'tdi, - deydi shoshilinch tibbiy yordam bo'limi mudiri Doniyor Qurbonov.

- Investitsiya mablag'i lari hisobidan o'rnatilgan zamonaviy tibbiy uskunalar yordamida bemorlarga shu yerning o'zida aniq tashxis qo'yilmoqda.

Yangi binoda joylashgan 295 o'rinci jarrohlik, tug'ruq, terapiya va bolalar bo'limlariga eng so'nggi rusumadagi 13 ta raqamli asobob-uskuna keltirib o'rnatilgan.

- Joriy yilda 46 mingdan ziyod 40 yoshdan oshgan hamyurtlarning skrining, qariyb 20 ming nafar avollarini onkologik tekshiruvdan o'tkazishni rejalashtrig'anman, - deydi tuman tibbiyot birlashmasi bosh vrachi o'rnbosari Azimjon Qilichev. - Shuningdek, 96 nafar bemorda yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti o'tkazamiz.

Buning uchun laparoskop,

lor-kombang kabi o'ta noyob asbob-uskunalariga ega bo'ldik. Ikki nafar vrachimiz bu uskunalarдан foydalanan bo'yicha malaka oshirib keldi. Endilikda shu yerning o'zida o'ta qiyin operatsiyalarni ham o'tkaza olamiz.

D.O'TAMURODOV.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev muborak Ramazon hayiti arafasida xalqimizga xos ezzulk, bag'rikenlik, insонparvarlik, mehr-oqibat va kechirimi bo'lish kabi olijanob fazilatlarning yorqin ifodasi sifatida "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi farmonni imzoladi.

## 49 nafar samarqandlik afv etildi

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasidagi 23-bandiga asosan jazo muddatini o'tayotgan hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan 426 nafar shaxs afv etildi.

### XO'SH, ULARNING QANCHASI SAMARQANDLIK

Viloyat ichki ishlar boshqarmasi probatsiya xizmatidan olingan ma'lumotga ko'ra, mazkur hujjat bilan 47 nafar samarqandlik afv etilgan. Ulardan 45 nafar jazoni ijob etish va manzil-koloniyalardan shartli ozod qilingan. 2 nafar sobiq mahkumning jazosi axloq tuzatish ishiga almashtirilgan.

Tahillarga ko'ra, afv etilganlarning 36 nafari Jinoyat kodeksi 273-moddasidasing turli sanksiyalar bilan bog'liq jinoymatlarda aybli, deb topilgan. Ya'ni, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarini o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o'tkazishda "qo'li" bo'lgan.

Afv etilganlarning 6 nafarini ayollar tashkil etadi.

Ular asosan Jinoyat kodeksining 135-moddasidagi (2 nafar giyohvandlik vositalari) - odam savdosini bilan bog'liq jinoymati uchun jazolangan. Mazkur xotin-qizlar orasida hali 20 yoshga ham kirmaganlari ham borligi ularga hayotda to'g'ri ni topib olishlari uchun katta imkoniyat berildi, deyish mumkin.

Hayit bayramini oilasi va yaqinlari bag'rida nishonlash imkonini berilgan sobiq mahkumlarning 8 nafari Urgut tumanidan, 5 nafari Paxtachididan. Qo'shrabot va Kattaqo'rg'on tumanlaridan 4 nafardan.

Farmon bilan 9 nafar probatsiya nazorati ostida bo'lgan shaxslarning ham qilmishi kechirilgan.

Afv etilgan shaxslarning ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishlari, sog'liom turmush tarzini yo'lib qilishlari uchun ularga ko'mak berish bo'yicha mas'ul tashkilot va idoralarga tegishli topshirilgan berilgan.

Y.MARQAYEV.

2023-yil 7-22-noyabr kunlari Parij shahrida bo'lib o'tgan YUNESKO Bosh konferensiyanining 42-sessiyasi yakunida uning navbat-dagi, 43-sessiyasini 2025-yilda Samarqand shahrida o'tkazish bo'yicha tarixiy qaror qabul qilindi. Ushbu qarorni tashkilotga a'zo 194 davlatning barchasi qo'llab-quvvatladi. Qaror shunisi bilan e'tiborliki, shu paytga qadar tashkilotning bironta sessiyasi Parijdan tashqarida bo'lib o'tmagan.

## Tarixiy hodisa: "BMTning aql laboratoriysi" Samarqandda qaror qabul qiladi



YUNESKO BMTning ixtisoslashgan musasalaridani biri bo'lib, ikkinchi jahon urushidan so'ng, 1946-yil tashkil qilingan. Tashkilotning asal maqsadi a'zo mamlakatlarda ta'lif, fan, madaniyat va axborot-kommunikatsiya sohalarini rivojlantirishdan iborat. Bosh qarrogohi Parij shahrida joylashgan. YUNESKO norasmiy ravishda "BMTning aql laboratoriysi" deb ataladi.

Hozirda YUNESKO-ga 194 mamlakat a'zo. Yana 12 mamlakat va hududlar assotsiativ a'zo maqomiga ega. Bugungi kunda 400 dan ortiq xalqaro nohukumat tashkilot va jamg'armalar, xalqaro va hududiy birlashmalar YUNESKO bilan hamkorlik qiladi. YUNESKOning umum-jahon ro'yxatidagi moddiy madaniy meroслar soni 1121 tani tashkil etadi. Mazkur ro'yxatiga O'zbekistondan Ichan qal'a (1990-yilda), Buxoro shahrining tarixiy qismi, Shahrisabz shahrining tarixiy qismi va Samarqand shahri (2001-yilda) kiritilgan.

YUNESKO umum-jahon ro'yxatidagi nomoddiy madaniy meroслar soni 500 dan ortiqni tashkil etadi. O'zbekistondan Boysun tumani madaniyati (2008-yilda), Shashmaqom (2008-yilda) - O'zbekiston va Tojikiston), katta ashula (2009-yilda), askiya - aql-idrok san'ati (2014-yilda), Navro'z (2016-yilda) O'zbekiston va yana 11 davlat), Palov tayyorlash madaniyati va urf-odati (2016-yilda), Marg'ilon hunarmand-chilikni rivojlantirish markazi, atlas va adres matolarini to'qishning an'anaviy texnologiyasi (2017-yilda), Xorazm lazgisi (2019-yilda) kiritilgan.

Samarqandda nufuzli anjumanni o'tkazish

yuzasidan mamlakatimiz rahbarining "2025-yilda YUNESKO Bosh konferensiya 43-sessiyasining Samarqand shahrida o'tkazilishiha tayyorgarlik ko'rish bo'yicha cho-ra-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham e'lom qilindi. Ushbu qaroring o'zida asosiy tayyorgarlik jaryonlari, amalga oshirilishi kerak bo'igan ishlari aniq belgilab qo'yilgan. Xususan, anjuman bo'lib o'tadigan Silk Road Samarkand majmuasida mehnmonlar uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha ishlari olib borilmoxda. Registon majmuasi, Afrosiyob shahri xarobalarli, Shohi Zinda majmuasida ko'rgazma loyihalarni, shuningdek, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi yangi ko'rgazma maydonini tashkil etish yuzasidan ekspertlar jabb etilmoxda.

Samarqand keyingi ikki-uch yilda yirik xalqaro anjumanlarni yuqori saviyada o'tkazishda katta tajriba to'pladi. Nafaqat turli tashkilot vaqillari, balki butun Samarqand ahlining mehnnavozligi, qadimiy va navqiron Samarqand nomiga munosib tarzda jarayonlarda ishtirok etishi xalqaro mashvaratlar ishtirokchilarning e'tirofiga sazovor bo'ldi. Shu ma'noda mazkur yuqori darajadagi anjumanning barcha xalqaro talablarga javob bergan holda o'tkazilishi uchun viloyat ahli uyushqoqligi bilan harakat qilishiga ishonamiz.

Rustam QOBILOV,  
viloyat hokimi  
o'rinnbosari.

## Qimorda g'oliblar bo'lmaydi

qarzdorlik botqog'iga botayotganligi haqida eshitgandiriz. Eng achinalli, qimorga mukkasidan ketib, bor budini boy bergen ayrim insonlar navbatdagi o'yniuchun pul topolmagach, o'g'rilik yoki firibgarlikka qo'llurmoqda.

Yodda tuting! O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 191-moddasida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda qonunxonali xilof ravishda ishtirok etish, voyaga yetmagan shaxsni shunday o'yinlarga jallo qilish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish yoki o'tkazish uchun telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmogi provayderlari tomonidan xizmatlar ko'satishga ko'maklishtirish, tegishli dasturni ta'minotdan nusxa olish, uni ko'paytirish, taraqish uchun ma'muriy javobgarlikka belgilangan.

Albatta, jinoyat uchun jazo muqarrar va bu amalda ta'minlanib kelimoqda. Shu bilan birga, ayni yo'nalishdagi jinoyatning oldini olish ham muhim masaladir. Internet tarmog'ining nazoratsizligi va undagi onlay qimor o'yinlarni butunluy cheklash imkon bo'lmayotgan bi paytda bu yagona yechim hisoblanadi.

Firuz MAMATQULOV,  
Samarqand harbiy sudining devonxonasi mudiri.

tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o'tkazish, shu jumladan, ana shunday o'yinlar uchun qimorxonalar tashkil etish yoki ularni saqlash, shuningdek, ushu jinoyatni takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarni ko'zlab sodir etilishi og'ir jinoyatida tasniflangan. Ushbu moddarang 3 va 4-qismlarida fuqaro tegishli noqonuniy harakatlarni unga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin qayta sodir etsa, jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan.

Albatta, jinoyat uchun jazo muqarrar va bu amalda ta'minlanib kelimoqda. Shu bilan birga, ayni yo'nalishdagi jinoyatning oldini olish ham muhim masaladir. Internet tarmog'ining nazoratsizligi va undagi onlay qimor o'yinlarni butunluy cheklash imkon bo'lmayotgan bi paytda bu yagona yechim hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 278-moddasi 1 va 2-qismlarida esa qimor va

Prezidentimizning 2021-yil 9-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojanishini ta'minlash cho-ra-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatimizning Urgut hamda Bulung'ur tumanlarida "Yangi O'zbekiston" massivlari qurilyapti.

Jumladan, Bulung'ur tumanining Olmazor mahallasi hududidan yangi massiv uchun qariyb 24 hektar yer maydoni ajratilgan bo'lib, 56 ta ko'p qavatlari uy-joy, 990 o'rinni 2 ta maktab, 120 o'rinni 2 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, mahalla binosi, oilavyi poliklinika va sport maydonchalari qurilishi belgilangan. Xo'sh, bugunga qadar hududda qanday ishlar amalga oshirildi?

"Yangi O'zbekiston" massividagi ko'p qavatlari uylarning qurilishi ishlari 9 ta pudratchi tashkilot tomonidan olib borilmoxda, - deydi tuman hokimining o'rinnbosari Norbo'ta Sanaqulov. - Massivdagi barcha uy-joylarga markazlashgan ichimlik suvi, issiqlik manbalai, tabii gaz, elektr va oqova tarmoqlari tortilmoqda. Hududda markazlashgan 1 ta suv inshooti va 1,2 kilometr ichimlik suv tarmog'i tortish ishlari bajarildi.

O'tgan yil 308 xonadonga mo'ljalangan 14 ta 5 qavatlari uy foydalinishga topshirilib, hududda vaqtinchalik 1 dona

## Bulung'urning Olmazorida yangi massiv qad rostlayapti



oqova suv inshooti qurildi. Hozirda yana bitta oqova inshootini qurish ishlari olib borilmoxda va joriy yil yakuniga qadar 12,5 kilometr oqova suv tarmog'i tortiladi va hududdagi barcha ko'p qavatlari uylar oqova ta'minotiga uylanadi.

Ayni paytda massivda 32 ta 5 qavatlari uylarning qurilish-montaj ishlari olib borilmoxda. Bu uylar joriy yil yakuniga qadar foydalinishga topshiriladi. 2025-yilda esa maktab va maktabgacha ta'lim tashkiloti, mahalla ma'muriy binosi, oilavyi poliklinika va sport maydonchalari qurilishi ishlari to'liq tugatilib, obyektlar foydal-

ishga topshiriladi.

Massivdagi uylar aholiga subsidiya va 20 yillik ipoteka krediti asosida berilmoxda.

- O'tgan yil ipoteka krediti asosida 3 xonali uya boshlang'ich to'lov qilib, shu yil ko'chib keldik, - deydi 32-uya yashovchi Mahliyo Namozova. - Xonalarni shinam, issiqlik tizimiga ulangan, elektr, gaz, issiq va sovuq suv bor. Hududda kelgusi yil yangi maktab va bog'cha, sport maydonchalari ham qurilar ekan va bu farzandlarimiz uchun ayni muddao bo'lardi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

## Maishiy chiqindi qayerda qayta ishlanadi?

Bugungi kunda viloyatimizdagagi chiqindi poligonlarida kuniga to'plangan 1380 tonna chiqindi 24 ta qayta ishlovchi korxonalar tomonidan saralanib, xomashyoga aylanmoqda. Jumladan, Kattaqo'rg'on tumanida "Anvar biznes invest" MChJ, Paxtachi va Naraypay tumanlarida "Mansurbek qo'rg'on" MChJ, Payariqda Shohimardon Asqarov oilavyi korxonasi plastmassa, qog'oz, shisha kabi maishiy chiqindilarni qayta ishlab, ikkilamchi mahsulotlar ishlab chiqarmoqda.

Samarqand shahrida joylashgan "Maroqandobod" davlat unitar korxonasi tomonidan kuniga 700 tonna, "Toza hudud" DUKga qarashli filial tomonidan 400 tonnadan ziyod maishiy chiqindi olib chiqilmoqda.

- Hozirda Samarqand shahri va tumanida korxonamizga qarashli 54 ta chiqindi to'plash shoxobchasi faoliyat ko'rsatmoqda, - deydi "Maroqandobod" DUK boshlig'i Rasul To'qinov. - Markaziy poligonda 26 nafar ishchi tomonidan kuniga 550-600 tonna maishiy, 100-130 tonna qurilish chiqindilari saralanadi. Ular asosan, qog'oz, plastmassa chiqindilarni terib olishadi. Qolgan chiqindilarni bir oyda bir marotaba zararsizlantirilib, rekultivatsiya qilinadi. O'tgan yili ikki marta Toshkent shisha ishlab chiqarish korxonasiga shartnomaga asosida xomashyo jo'natdik. Plastmassa va plastik mahsulotlari esa "SAG", "Uzgazkarpet" kabi gilam ishlab chiqaruvchi korxonalarga, shuningdek, Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarga ikkilamchi mahsulot sifatida yetkazib beryapmiz.

2018-yilda Fransiya taraqqiyot agentligi ishtirokida amalga oshirilayotgan "Samarqand shahrida qattiq maishiy chiqindilarni boshqaruvini modernizatsiya qilish" loyihasi bo'yicha ham ish olib borilmoxda. O'zaro hamkorlik davrida 80 ta yuk tashuvchi maxsus texnika keltirildi. Shuningdek, poligon va saralash majmuasi uchun xorijdan o'nga yaqin maxsus asbob-uskuna va texnika olib kelish qiyin kechmoqda. Bu holat loyihadagi maishiy chiqindilarni saralash zavodi hamda biogazni yoqilg'iga aylantrirish tizimini ishga tushirish imkoniyatini bermayapti.

- Viloyatimizda 14 ta chiqindi poligoni bo'lib, «Toza hudud» unitar korxonasining shahar va tumanlar filiallaridan tashqari xususiy sanitarni tashkilotlari tomonidan ham maishiy va qurilish chiqindilari olib chiqiladi va saralanadi, - deydi viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishni boshqarmasi chiqindilari bilan ishlash bo'limi boshlig'i Akmal Qo'shboyev. - Urgut shahridagi «Asia fiber» MChJ shisha buyumlari, Kamongaron mahallasidagi «Urgut China Karton» MChJ, «UNIPACK» MChJ qog'oz chiqindilari mahsulot ishlab chiqarayotgan bo'lsa, "Yalpoq-tepa plast" oilavyi korxonasi va "Ibroxim biznes baraka" MChJ ishlatilgan polimer chiqindilardan



kundalik uchun o'ta zarur bo'lgan mahsulotlar tayyorlamoqda. Past Darg'om tumanida joylashgan «Uz Prista Reguler» korxonasi esa ishlatalgan mashina moylarini yig'ib, qayta ishla moqda.

Yaqinda Prezidentimizning qaroriga asosan, yurtimizda har yili "Tabiat uyg'uligi himoyachisi" va "Eng toza mahalla" tanlovlari o'tkazilib, g'oliblarni aniqlash va ularni taqdirlash tartibi belgilandi.

- Qarorga ko'ra, joriy yilning iyun oyidan boshlab sanitar tozalash korxonalarining chiqindilarni yuklash, tashish, joylashtirish va saralash ishlari bilan shug'ullanuvchi ishchilar, ekofaollar va jamoatchilik ekologiya nazoratchilarining 100 nafari ha oyda bir marotaba velosiped va boshqa mukofotlari bilan taqdirlanadi, - deydi Akmal Qo'shboyev. - Tanlovda mahallada chiqindilarni to'plash, saralash hamda aholining ekologik tarbiyasi hamda madaniyati, daraxt va butalarini parvarishlashda suv tejovchi texnologiyalarni qo'llaganligi e'tiborga olinadi.

Shuningdek, "Eng toza mahalla" tanlovi g'olib bo'lgan mahallalarga chiqindi yig'ish maydonchalarini qurish, konteynerlar o'rnatish va daraxtlarni ekish uchun 500 million so'm pul mablag'i hamda xizmatda foydalanan uchun 1 tadan elektromobil topshiriladi. "Tabiat uyg'uligi himoyachisi" tanlovi g'oliblarining davlat OTMlariiga to'lov-kontrakt asosida o'qishga kirgan farzandlari yoki nabiralariga kontraktining bir yillik to'liq summasi, biroq BHMning 30 baravaridan ortiq bo'lmagan qismi to'lab beriladi.

Bu tanlovlarni tashkil etishdan asosiy maqsad shahar va qishloqlarimizni chiqindilardan xoli maskanga aylantrishdan iborat. Shunday ekan, nafaqat chiqindilarni terib olish, balki ulardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ham yo'iga qo'yish kerak.

Dilmurod TO'XTAYEV,  
"Zarafshon" muxbiri.

Matbuot uyida "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali tashabbusi bilan tashkil etilgan anjumanda joriy yil viloyatimizda elektr ta'minotini yaxshilash borasidagi rejalar bo'yicha ma'lumot berildi.

- Joriy yilda Urgut, Oqdaryo va Samarqand tumanlari va Samarqand shahrida 2 ta podstansiya va 244 ta transformator punkti, 12696 ta beton ustun o'rnatilib, 560,3 kilometr elektr uzatish tarmoqlari yangidan quriladi, - deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali direktori o'rbinbosari Eldor Mamasaliev. -Turli quvvatdagi 8 ta yangi

## Joriy yilda yana nechta podstansiyaning quvvati oshiriladi?

kuch transformatorlari yuklama bilan ishlayotgan 50 ta transformatorga almashtirilib, 351,2 MWt quvvat zaxirasini yaratiladi. Hozirda 2 ta 40 ming kWA transformator hamda 1 dona 63 ming kWA kuch transformatori o'rnatishga tayyor.

Shuningdek, yana ikki oy ichida 35/6 kW li podstansiyalar uchun 8 ta kuch transformatori olib kelinadi. Kuzish qavusmiga tayyorligarlik ko'rish maqsadida 10 ta podstansiya, 1197 ta

transformator, 3003,9 kilometr elektr tarmoqlarini mukammal hamda 132 ta podstansiya, 1988 ta transformator, 7021,9 kilometr elektr tarmoqlarini joriy ta'mirlash ishlari bajariladi.

Tadbirda yirik fotoelektr stansiyalar va quyosh panellari o'rnatish hisobiga 419,5 million kWt/soat, tarmoqlar modernizatsiyasi hisobiga esa 98,6 million kWt/soat elektr energiyasi iqtisod qilinganligi ta'kidlab o'tildi.

D.TO'XTAYEV.

## Samarqandda pedagoglar attestatsiyasi boshlandi



Kecha viloyat bilimlarni baholash markazida pedagog kadrlar attestatsiyasiga start berildi.

Tadbirning ochilish marosimida so'zga chiqqan viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i Shahzod Eshonqulov, viloyat hokimining ta'lim masalalari bo'yicha maslahatchisi Saidahmad Usmonov, maktabgacha va maktab ta'limi vazirligidan kelgan mas'ullar o'qituvchilarga omad tilidi.

Bu yilgi pedagoglar malaka toifasi uchun tashkil qilingan attestatsiya jarayonlari viloyatdan 21 ming 430 nafar pedagog ishtirot etishi ko'zda tutilgan.

Amaliyotga joriy etilgan yangi tizim asosida malaka toifasini olish sinovlari ikki bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda pedagogning mutaxassislik fani va kasb standarti bo'yicha bilim darajasi baholanadi. Bunda pedagoglarga mutaxassislik fani bo'yicha 35 ta hamda kasbiy standartlarga oid 5 ta test savollari beriladi. Ikkinci bosqichda pedagog mahorati baholanadi. Buning uchun 10 ta savol-topshiriq beriladi. Har ikkala bosqich ham kompyuterda real vaqt rejimida (onlayn) o'tkaziladi. Natijada tashqi aralashuvning oldi olinib, inson omili aralashuviga hambar beriladi.

Test sinovida har bir nomzodga matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika fanlari uchun 2 soat (120 daqqa), qolgan fanlardan 1,5 soat (90 daqqa) vaqt beriladi.

Attestatsiya jarayonlari joriy yilning may oyi oxiriga qadar davom etadi.

**Viloyat bozorlar va savdo komplekslari uyushmasi rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanida qayd etilishicha, hozirda uyushma tasarrufida 41 ta dehqon bozori va 18 ta savdo kompleksi mavjud. 2023-yilda bozorlar va savdo komplekslari tomonidan 84 milliard 290 million so'mdan ortiq tushum tushirildi.**

## Bu yil bozorlarda qanday o'zgarish bo'ladi?

Aholini asosiy turdag'i oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan uzlusiz ta'mirlash maqsadida kuzbunar mavsumida bozorlarda 3200 tonnadan ortiq mahsulot zaxirasi yaratilgan.

- Hozirgacha zaxiraga jamg'arilgan mahsulotlar tadbir-korga tegishli omborxonada saqlanardi va bu tannarxing ortishiga olib kelardi, - deydi viloyat bozorlar va savdo komplekslari uyushmasi raisi o'rbinbosari Akmal Qudratov.

- 2024-yilda uyushma qoshida markazlashtirilgan sovut-kichli omborxona qurish rejalashtirilgan. Shuningdek, Kattaqo'rg'on, Urgut, Paxtachi, Oqdaryo, Jomboy dehqon bozorlarida kapital qurilish va obodonlashtirish, viloyat-dagi barcha bozorlar va savdo komplekslariда zamonaviy loyihalar asosida hojatxonalar qurish rejalashtirilgan. Barcha dehqon bozorlari va savdo komplekslariда joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirish, sotuvchi va xaridolar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish, shuningdek, tushum pullarining jamiyat hisob-raqamilariga to'liq kirim qilinishini ta'mirlash maqsadida avtomatlashirilgan tizim joriy qilinadi.

O'.XUDOYBERDIYEV.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'londar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Tuychiyev Nuriddin Malikovichga (2021-yil 13-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Pardayev Mehridin Muhiddin o'g'li notarial idorasida marhum Nurmmamatov Axtam Pirmamatovichga (2020-yil 15-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Pardayev Mehridin Muhiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Narpay tumani "Alisher Navoiy" MFY, Amir Temur ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Raxmanova Mavjuda Qurbanovnaga (2024-yil 20-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial

idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Usmanov Islamga (2022-yil 13-aprel-da vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Raupova Sohiba Kurbanovnaga (2020-yil 4-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

\*\*\*

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Baro Jo'raqulova notarial idorasida marhum Yuldashev Shakhat Sattarovichga (2023-yil 13-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun

meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Baro Jo'raqulova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-“A” uy.

\*\*\*

Toyoq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Valixodjayev Farzod Botirovich notarial idorasida marhum Djurayev Aljon Turobovichga (2023-yil 23-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Valixodjayev Farzod Botirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Toyoq tumani Toyloq shaharchasi.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoiranova notarial idorasida marhum Umarov Ochil Usmanovichga (2023-yil 13-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoiranova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Amir Temur Navoiy ko'chasi, 158-uy.

\*\*\*

Kattaqo'rg'on shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Botirov Ozod Komiljonovich notarial idorasida marhum Burxonova Jamilla Pusatovnaga (2023-yil

Qishloq xo'jaligi rivojlanigan AQSh, Germaniya va Yevropa mamlakatlari taxminan 70 foizi sohada zamonaviy aqli texnologiyalardan foydalananmoqda. Jumladan, Gollandiya qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar keng qo'llanilib, robotlardan, turli xil jarayonlarni boshqarishda yordam beradi-gan internet buyumlaridan (IoT) foydalilanadi.



## Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar qo'llanyapti

Hindistonda esa fermerlarning bilim va malakasini oshirishga, xususan, ob-havo, mahsulot narxi, ekinlarni yetishtirish uchun eng yaxshi texnologiyalar va boshqalar to'g'risida ma'lumot beradigan mobil ilovalarni joriy etishga e'tibor qaratiladi. Har bir hududda qishloq xo'jaligida innovatsion va ilmiy markazlar tashkil etilgan.

Qishloq xo'jaligining raqamli transformsiyasi soha mutaxassislardan zamonaviy bilimlarga eng bo'lish barobarda, ularga yordam beradigan yangi "nooridity" yechimlarni talab qiladi. Hozirgi kunda global miqyosda inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida raqamli texnologiyalar dan foydalishni tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi ham bundan mustasno emas. Shu bois mamlakatimizda ham so'nggi yillarda tarmoqda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilyapti.

Hindiston mexanika va injenerlik - muhandislik ilmiy-tadqiqot instituti bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti hamkorlikda "O'simliklar himoyasi va avtomatik sug'orish tizimiga asoslangan tuproqlar monitoringida ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalinish" mavzusida qulqaro ilmiy loyiha olib borildi. Loyha dehqon va fermer xo'jaliklari uchun avtomatik sug'orish tizimida tuproq xususiyatlari tahlil qilish hamda o'simliklarni himoya qilishda IoT texnologiyalariga asoslangan mobil dasturni ishlab chiqish va joriy etish maqsadida tuzildi.

Loyihani amalda muvaffaqiyatli qo'llanilib, o'z natijasini berdi. Aytish mumkinki, IoT texnologiyasi orqali oziq-ovqat mahsulotlarning o'sish muhitini oqilona tartibga solish uchun ularni ekishning turli bosqichlarida maqsadli boshqaruv amalga oshirilishi kutilgan natijani bermoqda.

Loyha amalda muvaffaqiyatli qo'llanilib, o'z natijasini berdi. Aytish mumkinki, IoT texnologiyasi orqali oziq-ovqat mahsulotlarning o'sish muhitini oqilona tartibga solish uchun ularni ekishning turli bosqichlarida maqsadli boshqaruv amalga oshirilishi kutilgan natijani bermoqda.

Loyha 2021-2023-yillar uchun mo'ljalangan bo'lib, o'tgan yilning dekabr oyida muvaffaqiyatli yakunlandi. Loyha uchun Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 750 million so'm ajratildi.

Ayni paytda loyiha Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutiga tegishli maxsus yer maydonida amaloytga joriy etilmoqda. Kelajakda tadbirkorlarimiz o'z dala maydonlarida mobil dastur orqali boshqaruvni yo'lg'a qo'yadi va suvdan tejamkorlik bilan foydalangan holda yuqori hosil olishga erishadi.

**Olim MURTAZAYEV,**  
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori.**

### OCHIQ MA'RUDA O'TKAZILADI!

Samarqand davlat tibbiyot universiteti diplomdan keyingi ta'lilmaklari terapiya, kardiologiya va funksional diagnostika kafedrasida 2024-yil 7-may kuni soat 10:00 da ochiq ma'ruda bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Хроническая сердечная недостаточность: универсальный подход ведения коморбидного больного". ("Surunkali yurak yetishmovchiligi: komorbid bermorni davolash uchun universal yondashuv")

**Ma'ruzachi:** t.f.n., professor Agababyan I.R.

**Manzil:** SamDU DKTF terapiya, kardiologiya va funksional diagnostika kafedrasida 2-korpus 2-qavat, Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 144.

**Taklif qilinganlar:** Terapiya kafedralari tinglovchilar va shifokorlari, ushu mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olayotgan klinik ordinatordalar va magistratura rezidentlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri t.f.n., professor I.R.AGABABYAN.**

10-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Botirov Ozod Komiljonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Kattaqo'rg'on shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 148-uy.

\*\*\*

**BEKOR QILINADI**  
Fuqaro Kabulovo Baro Salexovnaga qarashli Samarqand tumani Rustam ma'llasida joylashgan uy-joyning (kadastr raqami 14:12:05:01:01:0749:0002) kadastr

hujjalari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

\*\*\*

Urgut tumanidagi Yangiobod mahalla fuqarolar yig'inining (STIR: 202820509) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

\*\*\*



## Xo'ja Ahrori Valiy Navoiyni sultanatga qaytargan

Samarqand tumanining aynan shahar bilan tutash Xo'ja Ahrori Valiy mahallasi hududida Naqshbandiya tariqatining yirik arbobi, Buxorodagi Bahovuddin Naqshband ta'limotining davomchisi Xo'ja Ahrori Valiy qabri joylashgan. Keyinchalik shu yerda 1630-yillarda Samarqand hokimi Nodir Devonbegi tomonidan masjid va madrasa qurilgan.

Shu yerda qisqagina ushbu alloma-bobokalonimiz haqlarida atyib o'tsam. U kishi 1404-yili Toshkent atrofidiagi xushman-zara mavzelardan biri - Bog'iston tunda tug'ilgan. Otasi Xo'ja Mahmud va buvalari ma'rifatli kishilar bo'lib, dehqonchilik va tijorat bilan shug'ullanishgan. Ona tomonidan esa mashhur Shayx Xovandi Tohurga borib taqalad.

Xo'ja Ahrori Valiy juda xalqparvar bo'lib, o'zining yet mulkidan keladigan daromadni xayrlri ishlarga sarflagan. Chunonchi Umarshayx Mirzo Toshkent aholisidan 250 ming dinor soliq talab qilganda u kishi xalq nomidani ushbu soliqni ortig'i bilan o'z hisobidan to'lagan.

Undan tashqari, u kishi temuriy shahzodalar va boshqa hukmdorlar bir-birlari bilan urushganda o'z obro'yidan foydalananib, ularni yarashtirgan. Jumladan, 1458-yili sulton Abusaid Mirzo o'g'llari Sulton Ahmad Mirzo, Umarshayx Mirzo va Yunusxonni o'g'li Sulton Muhammadlar orasida bo'lishi mumkin bo'lgan urushning tinch yo'l bilan hal qilinishiga sababchi bo'lgan. Shuning uchun temuriy shahzodalar u kishini o'zlarining ma'naviy ustozlari deb bilishgan. Xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning u kishiga hurmati juda baland bo'lgan. Umarshayx Mirzo o'g'liga Zahiriddin Muhammad ismini Xo'ja Ahror Valiy maslahati bilan qo'yanan. Keyinchalik Bobur Xo'ja Ahrori Valiyning "Risolai Voldiyya" kitobini fors tilidan o'zbek tiliga nazmda tar-

jima qilgan. Undan tashqari, u o'zining butun dunyoga mashhur "Boburnoma" asarida bir necha bor Xo'ja Ahrori Valiyini tilga olgan.

Xo'ja Ahrori Valiyingiz bizgacha "Faqarot ul-orfin", "Risolai Voldiyya" va "Havroviyya" kitoblari yetib kelgan. U kishi milodiy 1490-yilda Urgut tumani Kamongaron qishlog'ida vafot etib, yuqorida atyib o'tilganidek Xo'ja Ahrori Valiy mahallasi hududida dafn etilgan.

Shularni hisobga olib, Xo'ja Ahrori Valiy ansambliga doir ikkita taklit bermochchiman. Birinchi taklit ushbu ansambl qoshida kichikroq bo'lsa-da, Xo'ja Ahrori Valiy muzeyni qurish kerak. U yerga Xo'ja Ahrori Valiiga aloqador ayrim kitoblarning zamonaivi nusxalarini qo'yish mumkin. Yana bu yerga Xo'ja Ahrori Valiyingiz ona tomonidan bobosi Shayx Xovandi Tohurning poytaxtimiz Toshkentdagi maqbarasi maki (hech bo'imasra, fotosurati) qo'yilishi mumkin.

Ikkinci taklifim mavzusi butunlay boshqa. Ma'lumki, ushbu dargohni ziyorat qilish uchun avvalo, yurtoshlarimiz, dunyoning turli burchaklaridan asosan muslimon sayyoqlar tashrif buyurishadi. Atrofda oshxona, kafe, restoranlar ko'p, lekin ular zamonaviy bo'lib, turli din va millat vakillariga xizmat ko'rsatishga moslashgan. Muslimon ziyratchilariga xizmat ko'rsatish uchun maxsus, halol maqomidagi oshxonha qurilsa, turizm rivojiga xizmat qilardi.

Rustam VAFOYEV,  
Samarqand tumani.

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

### 19-APREL

Zafar ISMOILOV – 1955-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Biologiya fanlari doktori.

### 20-APREL

Primkul NURMONOV – (1911-1978) Payariq tumanida tug'ilgan. Ikkinci jahon urushi qatnashchisi. Qahramon. Jamol TURSUNOV – (1951-2001) Oqdaryo tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Jurnalislari ijodiy uyushmasi a'zosi.

Ahad HAYDAROV – (1911-1971) Samarqand shahrida tug'ilgan. Jarroh. O'bekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

**MUASSIS:** Samarqand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir:** Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 680 nusxada chop etildi. Buyurtma 197. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LMILAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

↓ Taklif

**Har qanday millat farzandlarining sog'iom, aqli va bilmli bo'lishini xohlaydi. Psixolog olimlarning fikricha, bolalar butun umri davomida o'zlashtiradigan bilimlarning 70 foizini 7 yoshgacha qabul qilar ekan. Ushbu ma'lumotni e'tiborga olgan yapon onalari bolaga go'dakligidan quyidagicha tarbiya berar ekan.**

Agar yapon oilasida farzand tug'ilsa, ona uning tarbiyasini o'z hayotining asosiy maqsadi deb biladi. Oilada o'g'il bola tug'ilsa, uni oilasi va mamlakatning kelajakdagilaytanchi deb tarbiyalashga kirishadi. Qiz farzand tug'ilsa, uni aqlini taniganidan boshlab oila yu'mushlariga tayyorlashda va atrofidiagi odamlar bilan chiroyli mulogot qilishga o'rgatishadi.

Yapon onasining bola tarbiyasidagi faoliyat har qanday insonni lol qoldiradi. U bir yashar bolasida o'ziga ishonchni tarbiyalaydi va unga yapon, ingliz va rus tillaridagi rasmlari kitoblarni o'qib beradi, rasmlarini tomosha qildiradi.

Yapon yigitiga tur mushga chiqqan samarqandlik ayolning aytishicha, qaynonasi kelining o'zbek tilidagi kitoblarni ham bolasiga o'qib berdiradi ekan. Bola kitobni tinglab, bu orqali unda ixtiyoriy diqqat rivojlanar ekan. Eng qizig'i, har kuni bolani cho'miltirib yotqizgandan so'ng yarim soat kitob o'qib berilmasa, go'dak uxlamas ekan. Demak, yapon onasi bolasini go'dakligidan shunday yashash tarziga ko'niktirib boradi. Ushbu amaliyotni Yaponiyaga kelin bo'lib tushgan ayolning Samarcanddagi oilasida qilib ko'rishsa, bizning bolalar qulqo ham solishmabdi, hatto kitobga qarashmabdi ham. Buning sababi, bizda go'dak bolaga kitob o'qib berish urfga aylanmagan. Demak, kitob o'qishni bolalarning oniga go'dakligidan singdirish kerak. Shuning uchun ham yaponlar ertalabdan oziq-ovqat do'konida emas, aksincha, kitob do'konida navbatda turishadi.

Bolani mehnatkash qilib o'stirishda ham yapon onalarining tajribasini o'rganish maqsadga muvofig. Bu yurt onalari 2 yoshi bolasini qo'il mehnati bilan tanishiradi.

U idish-tovoq yuvishdan, uni artib, joyiga qo'yishni bolasining ko'z o'ngida bajaradi. Xonalarni tozalash, tikish-bichish, to'qish kabi

## Yaponlardan nimalarni o'rganamiz?

ishlarni ham bolaning oldida qiladi. Bizning onalar esa bolani uxlatib, uy-yumushlarini bajarishadi. Demak, bizning bolalar 7 yoshgacha o'zlashtirishi zarur bo'lgan ko'nikmalar dan bebahra qoladi.

Yapon onasi 3 yoshli farzandida mas'uliyatni anglashni tarbiyalaydi. Bizda esa hatto ba'zi katta yoshli odamlarimizda ham mas'uliyat yetarli emas. Kasbiga sodiqlik bilan yondashish o'rniga vazifasini qo'l uchida, kun o'targa, naridan-beri bajaradigan va maoshni kutub yashaydiganlar istalgancha topiladi.

Shuningdek, 40 yoshdan oshgan o'g'li-miz yashaydigan xonaga kirsak, ostonadan uyning to'rigacha kiyimlari va boshqa nar-salarining sochilib yotganiga guvoh bo'lamiz. Ertalab ishga ketish oldidan baqir-chaqir bilan paypoq izlash boshlanadi. Nima uchun farzandimizning kiyim-kechagini onasi yoki ayoli yig'ishtirib yurishi kerak? Nega ishlatgan buyumlarini yuvib, tozalab joyiga qo'ymaydi? Nega bolamiz ishlatgan birligina tokqaychini soatlab izlab, jig'ibiyron bo'lamiz? Bu noxush holatlarining sababi bolamizga yoshligidan mas'uliyatni anglashni o'rgatmaganimizdir.

Rivojlangan mamlakatlarning barchasida, jumladan, bizda ham bolalar 3 yoshdan bog'chaga borishadi. Bog'cha opa bolaga kiyimlari tegishli joyga, talab etilgan tarzda joylashtirishni o'rgatadi va bolalar uni bajarishti. O'sha bola uyga kelgach, ostonadan boshlab oyoq kiyimini yarim yechib otadi. Kiyimi ham shu alfozda yechiladi va kattalar ularni yig'ishtirib oladi. Kattalar buni tabiiy holdek qabul qilishadi, natijada bolalar o'z vazifasiga mas'uliyatsiz bo'lib o'sadi.

Yapon ona bog'cha opa bilan hamkorlikda ishlaydi. Bog'chadan uyga kelgan yapon bolasi kiyimlарини, moyabzallарини va boshqa buyumlarini tozalab, joy-joyiga qo'ygach, ikki kaftini birlashtirib, ta'zim bilan bajargan yaxshi ishlari uchun atrofidiagi kattalardan rag'bat kutadi va uni albattra, oladi.

Shu o'rinda o'zimizda bo'lgan hayotiy voqeani keltiraman. Bir oilaning 5 va 7 yoshli o'g'illari hovlida to's-to'polon qila boshlabdi.



Bolalarning shovqin-suronidan bezor bo'lgan amakisi ularni ichkariga kiritib yuboribdi. Yotoqxonani yig'ishtirayotgan ona zaldagi bolalarining "Kattalarni bopladi-k-a", degan gapini eshitib qolibdi. E'tibor qilsak, yapon bolasi qilgan yaxshi amallari uchun kattalardan rag'bat olib xursand bo'lsa, biznikilar kattalarni "boplab" quvonishmoqda. Bolalarga o'z vaqtida to'g'ri tarbiya berilmasa, kelajaka "boplovchi"lar nimalar qilishmaydi.

Yapon onasi 4 yoshli farzandiga uning hayotida uchrashi mumkin bo'lgan yaxshilik bilan yovuzlikni farqlashga o'rgatadi. Yapon oиласи bog'cha bilan hamkorlikda 5 yoshli bolalarda liderlikka, reja tuzish va ularni mustaqil bajarishga o'rgatishadi. Bog'chada 8 kishilik kichik guruhlardagi bolalar navbat bilan rahbarlik vazifasini bajarishadi. Bu amallar maktabning boshlang'ich sinflarida ham davom ettiriladi.

Xullas, Yaponiyada oila, bog'cha va maktab ta'lim-tarbiyasida uzyvlik o'rnataligan. Biz ta'lim-tarbiya sohasida xorijning ilg'or tajribalaridan foydalansak, o'rnli bo'ladi. Chunki butun jahon barcha sohalarda, jumladan, ta'lim-tarbiyada ham o'zaro manfaatli munosabatlarga asoslanadi.

**Pirnazar DAVRONOV,**  
**viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi professori.**

## Ko'ngilga "kamera" o'rnatish kerak

**Ayrim korxona va tashkilot, hovli yoki ko'p qavatlari uylarning yonidan o'tsangiz gul va manzarali daraxtlar ekilganiga guvoh bo'lib, bahri dilingiz ochiladi. Ba'zi turarjoylar atrofi esa chiqindi bilan to'lgan.**



Kech kuz edi. Xizmat safari bilan chekka tumanlarning birida bo'ldim. Ilgari ham bu yerdagi bo'lganman, ammo markaziy ko'chalarda, avtomobil yo'li va piyodalar yo'lakchalarini orasidagi bo'sh joylarning qurib, changib yotganini ko'rardim. Bu safar boshqacha manzaraga ko'zim tushdi. Yo'l yoqalari ko'ka-lamzorlashtirilgan. Hayratlanganimmi hamrohim - tuman hokimligi - aylantirsa, ko'chalarimiz har doim ko'rkam bo'ladi.

- Bunga erishish oson bo'lmadi. - dedi u. - Yaqinda ish boshlagan hokim o'rinnbosarining sa'y-harakati bilan shu natijaga erishdik. To'g'risini aytasam, odamlarni yaxshi gap bilan "uyg'otib" bo'lmadi. Ishchi guruh

tuzilib, har bir tashkilot bormi, korxonami, savdo do'konimi, bar-chasini ko'zdan kechirdik. Har biriga o'ziga tegishli hududni obod qilish tavsiya etildi. Ishlar haftada bir martadan nazorat qilinadigan bo'ldi. Videolavhalar tayyorlanib, har yig'ilishda muhokama qilindi. Xuldas, ikki oyda iziga tushdi. Endi odamlarimiz bu ishlarni odatga aylantirsa, ko'chalarimiz har doim ko'rkam bo'ladi.

Shu kuni "Tomorqadan topganlarim" rukni ostida maqola tayyorlash maqsadida tumandaqgi ayrim hovlarda ham bo'ldik. Ularning birida yashovchi Tolliboy amaki 3 soxitgina tomorqasidan mo'may daromad topayotganini aytdi. Yana bir tomorqa egasi,

o'zini Gulsum deb tanishtirgan onaxon yoshi yetmisiga yaqinlashib colgan bo'lsa-da, 2 soxit maydonda gul ko'chatlari ye-tishitirib sochilib shun'ulanlar ekan. U hovlisidan tashqaridagi ariq yoqasidan ham unumli foydalanayapti. Bu yerdagi ochilib turgan gullar, birinchidan, ko'chaga ko'rkmlik bag'ishlasa, ikkinchidan, ular orasidan ko'chatlar olinib, bozorga chiqarilishi onaxonning oиласига qo'shimcha daromad keltiryapti.

Ayrim keng maydonli to-morqalarning aksariyati esa bo'sh yotib. Achinalar, bu hovlarda Gulsum uya va Tolliboy amakidek nuroniylar emas, yosh-yosh yigitlar yashaydi. Yana ana shu kabiliyatlarning atrofi obod qilinmagan.

Yana bir misol, shahar markazidagi ko'p qavatlari uylarning biri yaqinidagi ayvonchaga o'rnatalgan o'rindiqa do'stimni kutib o'tirgandim. Atrofning tozaligi e'tiborimni tortdi. Odatda kutish odamim charchatadi. Ammo bu hududning obodligi va sokinligi menqa zavq bag'ishlardi.

Birozdan so'ng ichida allanimlardagi bo'lgan qora polietilen paketning yuqori qavatdan yerga tushishi va bu holatga guvoh bo'lgan, sal naridagi o'rindiqa o'tirgan ayolning baqirgani oromimni budzi. Ayolning atrofiga darrov bi necha kishi to'plandi.

- Qaranglar, bu nima ahvol? - dedi ularga maysalar ustida sochilib yotgan chiqindilarni ko'rsatib. - Bir bo'lmadi, ikki

bo'lmadi... Axir bu yerni obod qilish uchun qo'shnilarning hech biridan bir tiyin ketmagan-da. Manavi birinchi qavatda yashaydigan Asqr amaki bir o'zi qildi shu gulzorni. Birov yordam beray demadi. U kishi ishlayotganda "hormang" deb o'tishga yaramadi ayrimlari. Otasi qator qodralash o'rniga chiqindisi uloqtiqidir.

- Ha, yana shu yuqori qavatda yashaydiganlarning ayrimlari balkonidan pastga nos tuflaydi, befarosatlar, - deya jahil bilan baqira ketdi boshqa bir ayol.

- Kamera qo'yish kerak, - dedi ularni jimgina tinglab turgan erkaklarning biri.

- Kamerani har bir inson o'zing ko'ngliga o'rnatmasa, natijaga erishib bo'lmaydi, - suhbatga qo'shildi yana bir erkak kishi. - Har kim nima ish qilayotganini bironning ko'zi bilan ko'rib turishi kerak va o'ziga o'zi baho berishni o'rganishi shart. Aks holda, ana shunday hayot kechiraveramiz. Agar odamning aqli yetmasa, kameranering ustiga ham tuflab ketaveradi. Jarimalar ham uning ko'zini ochmasligi mumkin.

Har birimiz farzandlarimizning kelajagi uchun qayg'uramiz. Ularning sog'gom bo'lishi tabiatning musaffoligiga bog'liq ekanligini chuqurroq anglab yetishimiz kerak. Ko'chalarni ko'kalanzolashtirish, gul va daraxt ko'chatlarini parvarishlash o'rniga chiqindisi uloqtirishimiz iqilmingiz o'zgarishiga sabab bo'ly